

Namangan viloyatida bajarilgan qurilish ishlari


2025-yil yanvar-iyul oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari
- III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- IV. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- V. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2025- yilning yanvar-iyul oylarida, Namangan viloyatida jami 7612,3 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 111,8 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



2025- yilning yanvar-iyul oylarida hududlar kesimida, xususan, Namangan shaharda (1612,2 mlrd so'm), Uychi tumanida (526,5 mlrd so'm) va Pop tumanida (419,6 mlrd so'm) qurilish ishlarining yuqori hajmi qayd etildi.

	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
Namangan viloyati	7612,3	111,8
Mingbuloq tumani	310,3	98,3
Kosonsoy tumani	330,1	109,0
Namangan tumani	292,3	108,2
Norin tumani	198,7	99,1
Pop tumani	419,6	130,9
To'raqo'rg'on tumani	273,5	115,8
Uychi tumani	526,5	102,4
Uchqo'rg'on tumani	386,0	117,5
Chortoq tumani	336,0	109,9
Chust tumani	290,3	106,6
Yangiqo'rg'on tumani	275,5	125,0
Namangan shahar <i>shundan</i>	1612,2	114,8
Davlatobod tumani	683,3	109,6
Yangi Namangan tumani	368,1	121,8
Taqsimlanmagan	2361,3	117,3

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

**II. Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya,
kengaytirish, texnik qayta jihozlash ishlari**


Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 79,0 % i yoki 6013,5 mlrd so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan. Jumladan:

Yirik qurilish tashkilotlari – **385,4** mlrd so'm, *jamiga nisbatan ulushi – 6,4 %;*

Kichik korxona va mikrofirmalar – **2322,9** mlrd so'm *hamda ulushi – 38,6 %;*

Norasmiy sektor – **3305,2** mlrd so'm *hamda ulushi – 55,0 %.*

Yangi qurilish ishlari hajmining bajarilgan qurilish ishlaridagi ulushi



2025-yilning yanvar-iyul oylarida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari bo'yicha yuqori hajm Namangan shahar (1183,4 mlrd so'm), Pop tumani (349,5 mlrd so'm) va Uychi tumani (409,9 mlrd so'm) qayd etildi.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Yangi qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)


[Yangi qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2025-yilning yanvar-iyul oylarida Namangan viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 76,7 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 109,9 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 9,4 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 62,0 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 13,9 % ulushni va 2024-yilning mos davriga nisbatan 310,4 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



Bino va inshootlar qurilishining asosiy ko'rsatkichlari


Amaldagi statistik kuzatuv shakllarida 2015-yilning 1-yanvaridan boshlab, "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulot (mahsulot, ish, xizmat)lar statistik tasniflagichi (MST)"ga muvofiq "Qurilish faoliyati bo'yicha o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi" ko'rsatkichi qo'llaniladi.

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 2,9 % ni tashkil etib, 2024-yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 0,7 % punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2024-yilning mos davriga nisbatan 2,3 % punktga kamayib 36,2 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2024-yilning mos davriga nisbatan 1,6 % punktga ko'payib, 61,0 % ni tashkil etdi.

Bino va inshootlar qurilishining hajmi va o'sish sur'ati



Bino va inshootlarni qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining hududda bajarilgan jami qurilish ishlaridagi eng yuqori ulushi Chust tumani (77,1 %), To'raqo'rg'on (77,0 %) va Kosonsoy tumani (76,8 %) kuzatildi.


Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

Fuqarolik obyektlari qurilishining asosiy ko'rsatkichlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 47,5 % ni tashkil etdi va 2024-yilning mos davriga nisbatan 26,6 % punktga ko'paydi. Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2024-yilning mos davriga nisbatan 26,6 % punktga kamaydi 52,2 % ni tashkil etdi.



Fuqarolik obyektlarini qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining hududda bajarilgan jami qurilish ishlaridagi eng yuqori ulushi Mingbuloq tumanida (11,6 %), Pop tumanida (9,6 %) va Chortoq tumani (9,4 %) kuzatildi.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)


[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2024-yilning mos davriga nisbatan 2,9 % punktga kamayib va 5,5 % ni tashkil etdi.

Qolgan 94,5 % i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 2,9 % ko'paygan.

Korxonalar turlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati




Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining hududda bajarilgan jami qurilish ishlaridagi eng yuqori ulushi Namangan shahar (17,2 %), Pop tumani (17,6 %) va Chortoq tumani (16,6 %) kuzatildi.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

IV. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025-yilning yanvar-iyul oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 565,7 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 147,9 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 1,7 % ga ko'payib, 7,4 % ni tashkil etdi.

2025-yilning yanvar-iyul oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 45,8 % i to'g'ri kelib,

2024-yilning mos davriga nisbatan 2,3 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 107,8 % ni tashkil etgan holda 3486,6 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 46,8 % mos davriga nisbatan 0,6 punktga ko'paygan yoki 3560,0 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 111,6 % ni tashkil etdi. Shundan 2856,3 mlrd so'mi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga to'g'ri kelib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 114,0 % ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 448,9 mlrd so'mni va 98,3 % ni, yakka tartibdagi turar-joylarni ta'mirlash ishlari 254,7 mlrd so'mni va 112,3 % ni tashkil etdi.

Korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



Hududlar kesimida korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor
Namangan viloyati	565,7	3486,6	3560,0	147,9	107,8	111,6
Mingbuloq tumani	4,9	230,0	75,4	61,6	95,6	113,0
Kosonsoy tumani	4,9	135,6	189,6	25,3	130,9	105,3
Namangan tumani	18,7	161,4	112,3	60,0	117,6	110,3
Norin tumani	2,7	79,9	116,2	34,1	89,7	112,6
Pop tumani	203,4	140,8	75,4	218,6	87,2	113,7
To'raqo'rg'on tumani	8,6	168,6	96,2	139,3	115,4	114,8
Uychi tumani	49,5	369,2	107,8	550,8	89,3	117,5
Uchqo'rg'on tumani	35,5	185,6	164,8	84,9	131,0	113,6
Chortoq tumani	5,2	203,2	127,5	44,6	113,3	111,4
Chust tumani	12,0	132,3	146,0	233,3	102,2	106,0
Yangiqo'rg'on tumani	10,7	115,0	149,8	132,2	136,0	117,0
Namangan shahar	127,4	1264,1	220,7	167,6	111,7	112,3
<i>shundan</i>						
Davlatobod tumani	25,5	629,4	28,4	8,7 m	111,7	48,8
Yangi Namangan tumani	81,4	253,4	33,2	3,1 m	127,0	42,8
Taqsimlanmagan	82,2	300,9	1978,3	126,4	108,4	111,5

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Uychi tumani (2024-yilning mos davriga nisbatan 5,5 marta), va Chust tumanida (233,3 %) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Yangiqo'rg'on tumanida (2024-yilning mos davriga nisbatan 136,0 %) va Kosonsoy tumanida (130,9 %) kuzatildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Uychi tumanida (2024-yilning mos davriga nisbatan 117,5%), Yangiqo'rg'on tumanida (117,0 %) va To'raqo'rg'on tumanida (114,8 %) qayd etildi.

V. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
- d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;
- e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;
- f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.